



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJTIMOIYLASHUVIDA MILLIY QADRIYATLARNING O‘RNI VA ULARDAN FOYDALANISH

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti
“Psixologiya (Social Psychology)” yo‘nalishi

Yarashova Sitora Yermamatovna

2-kurs magistranti

E-mail. @sittoras2501

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuv jarayonida milliy qadriyatlarning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda bola shaxsining shakllanishida oila, maktabgacha ta’lim tashkiloti va ijtimoiy muhitning ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, ijtimoiylashuvning asosiy sohalari — faoliyat, muloqot va o‘z-o‘zini anglash jarayonlari orqali milliy qadriyatlarning bola ongiga singdirilishi ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Maqolada milliy qadriyatlarning bolalarning ijtimoiy xulq-atvori, kommunikativ ko‘nikmalari, emotsional rivojlanishi hamda “Men” obrazining shakllanishiga ko‘rsatadigan ta’siri ochib berilgan. Shu bilan birga, ota-ona va tarbiyachilar hamkorligining ijtimoiylashuv jarayonidagi ahamiyati ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha yosh, ijtimoiylashuv, milliy qadriyatlar, oila, tarbiya, muloqot, faoliyat, o‘z-o‘zini anglash.

Kirish. Maktabgacha yosh davri bolaning ijtimoiylashuvi va shaxs sifatida shakllanishidagi muhim bosqich hisoblanadi. 5-7 yoshli bolalar oila hamda tashqi muhitda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni o‘z hayotida va faoliyatida ongsiz ravishda takrorlaydi. Bu davr bolalarda taqlidchanlik xususiyati kuchli ekanligini ko‘rsatadi. Maktabgacha ta’lim davrida bola ongida gavdalanadigan barcha holatlar, o‘zlashtiriladigan ko‘nikmalar keyinchalik ijtimoiylashuv jarayoniga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Xo‘sh, ko‘nikma va holatlar deya ta’kidladik. Aslida, bu jarayonlar qayerda sodir bo‘ladi? Jamiyatning eng kichik bo‘g‘ini bo‘lgan oila bunday vaziyatda asosiy pallada ko‘rsatiladi. Shuningdek, tashqi muhit hamda maktabgacha ta’lim tashkilotlari ham bundan mustasno emas, albatta. Oila milliy qadriyatlarni, axloqiy tushunchalarni va tarbiya komponentlarini o‘zida jamlovchi sehrli uychadir. Bu sehrli uyda bola o‘zlashtiradigan barcha bilim va ko‘nikmalar kelgusi hayoti uchun poydevordir. Har bir o‘zbek oilasi o‘zining qadriyatlariga egadir. Milliy qadriyat sifatida ana shu oilada mavjud bo‘lgan qadriyatlarni ham misol sifatida keltira olamiz. Masalan, salomlashish odobi, kattalar gapirayotganda so‘zlarini bo‘lmaslik,



oilaviy qarorlarni birgalikda qabul qilish, bir-birini qo'llab quvvatlash, ijtimoiy me'yorlarga bo'ysunish va h.k.

Ta'kidlanishicha, o'zbek xalqining eng muhim milliy qadriyatlarining shaxs ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishidagi o'rni haqida so'z yuritadi. Maqolada ta'kidlanishicha, xalqning ma'naviy qadriyatlari, uning an'analari, urf-odatlar va xulq-atvorlari ko'plab avlodlar davomida shaxsning shakllanishida, o'sib kelayotgan avlodning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynagan.

Ijtimoiylashuv jarayonida milliy qadriyatlardan qanday qayerda foydalanish mumkin degan savol tug'iladi. N.Ismoilova va D.Abdullayevalarning ta'kidlashicha, shaxsning ijtimoiylashuvida oila va mahalladan so'ng ta'sir ko'rsatuvchi asosiy maskanlardan biri — maktabgacha ta'lim tashkilotidir. Ularning bu jarayonda o'ziga xos ahamiyati shundaki, maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlari bolaning ota-onasi bilan bevosita, har kuni muloqotda bo'ladi va ular maktab ma'muriyatidan farqli ikki xil funksiyani bajaradi: rasmiy va norasmiy. Ya'ni tarbiyachi ota-ona bilan faqat tarbiyachi sifatida gaplashish yoki yaqin munosabatlarda bo'lishi ham mumkin. Ota-ona va tarbiyachi munosabatlari qanday bo'lishidan qat'i nazar maqsad — bolaning ijtimoiylashuvi uchun ijobiy yordam berishdan iborat bo'lishi kerak. Tarbiyachi ota-onalar bilan suhbat jarayonida bolaning oilaviy muhiti, oila a'zolarining milliy qadriyatlarga bo'lgan yondashuvlarini qanday ekanligini bilib olishi mumkin. Shuningdek bu jarayonni tahlil qilib tarbiyalanuvchilarni ijtimoiylashuv jarayonida milliy qadriyatlardan foydalanishning amaliy jihatlari ko'rib chiqish imkoniga ega bo'ladi.

Asosiy qism. Ijtimoiylashuvning tuzilishiga ko'ra, shaxs shakllanish jarayoni inson tug'ilgan daqiqadan boshlanadi. G.M.Andreyeva o'zining «Ijtimoiy psixologiya» kitobida shaxs shakllanishining uchta soha orqali amalga oshirilishini aytib o'tadi:

1.Faoliyat sohasi, ya'ni umri mobaynida shaxs turli faoliyatlarga bevosita yoki bilvosita jalb etilgan bo'lib, bu jarayonda faoliyatlar sohasi kengayib, boyib boraveradi. Har bir faoliyat turi individdan maxsus fazilatlarini, malaka va ko'nikmalarni, bilimlarni talab etadiki, ularni qoniqtirish yo'lidagi faolligi unda o'ziga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlar kompleksini shakllantiradi.

2.Muloqot sohasi, ayniqsa maktabgacha yosh davrdagi muloqot tizimlari bolada bir qancha ijtimoiy-psixologik xislatlarni paydo qiladiki, buning natijasida u faol hayotiy mavqega ega bo'ladi, jamiyatda o'z o'rnini tasavvur qilishga erishadi.

3.O'z-o'zini anglash sohasi. Ijtimoiylashuvning yana bir sohasi o'z-o'zini anglash sohasidir. Umumiy qilib aytganda, ijtimoiylashuv jarayoni odamdagi «Men» obrazining shakllanganligidan dalolat beradi. Ko'p tadqiqotlarda,



qayd etilishicha, shaxsdagi «Men» obrazi birdaniga shakllanmaydi, balki uning shakllanishi butun hayot davomida ko‘p sonli ijtimoiy ta’sirlar ostida kechadi.

Bu uchchala sohaning har biri milliy qadriyatlarni shakllantirish imkoniyat yaratadi. Masalan, maktabgacha yosh davrida yetakchi faoliyat sifatida o‘yin faoliyati namoyon bo‘ladi. Aynan o‘yin jarayonida bola ijtimoiy rollarni egallaydi, kattalar va tengdoshlar bilan munosabatga kirishadi hamda ijtimoiy xulq-atvor me‘yorlarini o‘zlashtiradi. Milliy qadriyatlar bu jarayonda milliy o‘yinlar, urf-odatlariga asoslangan faoliyat turlari orqali bolalarga singdirilib, ularning ijtimoiy xulqining shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bola muloqot jarayonida jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar tizimini, odob-axloq qoidalarini hamda o‘zaro hurmat tamoyillarini o‘rganadi. Maktabgacha yoshda kattalar va tengdoshlar bilan muloqot qilish orqali bolada muloqot madaniyati, hamkorlik, empatiya va ijtimoiy moslashuv ko‘nikmalari shakllanadi. Milliy qadriyatlar esa muloqot jarayonida salomlashish, kattalarga hurmat, muloyimlik kabi xulqiy me‘yorlar orqali namoyon bo‘lib, bolalarning jamiyatga muvaffaqiyatli moslashuviga xizmat qiladi.

Xulosa. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchisiga ham ongli ravishda singdirib borilayotgan qadriyatlar uni bu jarayonga yumshoq moslashishiga xizmat qiladi. Bilamizki, milliy qadriyat deganda tarixiy yodgorliklar, ota-bobolarimizdan qolib kelayotgan urf-odatlar, milliy kiyimlar ko‘z oldimizda gavdalanadi, tasavvur qilamiz. Bularning barchasi tashqi tomonda ko‘ra oladigan ,qaysidir ma’noda atrofimizda mavjud unsurlardir. Shu qadriyatlar bilan birga bizning ma’lum bir jamiyatga tegishli ekanligimizni ko‘rsatib turuvchi milliy qadriyatlarimiz ham mavjud. Masalan uzbek millatiga xos bo‘lgan mehmon kutish san’ati, kichik yoshlilarning o‘zidan kattalarga qiladigan hurmatiyu kattalarning kichiklarga ko‘rsatayotgan izzati, imkoniyati cheklangan shaxslarga qilinadiga muruvvat yoki ma’lum bir holatlarda navbat kutish odobi kabilar. Bular ham tom ma’noda axloqiy tarbiya sifatida ko‘rilishi mumkin. Aslida, sanab o‘tilgan xislatlar zamonlar osha o‘tib kelayotgan, millatimizga xos bo‘lgan milliy qadriyatlardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. – 416 b.
2. Ismoilova N., Abdullayeva D. Ijtimoiy psixologiya: pedagogika va psixologiya bakalavriyat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2013. – 168 b.
3. Kon I.S. Sotsiologiya lichnosti. – Moskva: Izdatelstvo politicheskoy literatury, 1967. – 384 s.



4. Andreyeva G.M. Ijtimoiy psixologiya. – Moskva: Aspekt Press, 2001.– 384 s.
5. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978. – 159 p.
6. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. – Cambridge: Harvard University Press, 1979. – 330 p.